ISNN:2181-1296

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (156)
2026

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2026-yil, 2-son (156/2) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Huquqshunoslik, Siyosiy fanlar, O‘qitish metodikasi, Filologiya, Pedagogika, Sotsiologiya, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R.I.XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI: **H.A.XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M.Q.Muhiddinov	-f.f.d., professor (SamDU)	B.E.Ergashev	-t.f.d., professor (SamDU)
Stefano Benazzi	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	S.A.Karimov	-f. f. d., professor (SamDU)
Simone Mantelini	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	M.X.Lutfullayev	-p.f.d.. professor (SamDU)
Sh.Y.Ziyodov	-i.f.d. (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)	A.R.Samadov	-fal. f.d., professor (SamDU)
N.U.Arabov	-i.f.d., professor (SamDU)	Sh.A.Hasanov	-f.f.d., professor (SamDU)
Hiroaki Huziie	-Osaka universiteti professori (Yaponiya)	B.S.G‘oyibov	-t.f.d., (SamDU)
B.O.To‘rayev	-fal. f.d., professor (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-	G.B.Normurodova	-t.f.d., (SamDU)
A.B.Pardayev	-f. f.d., professor (SamDU)	F.Sh.Rashidova	-t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.Yusupova	-f.f.n., dotsent (SamDU)	D.Q.Usmonova	-i.f.n., dotsent (SamDU)
O.Qodirov	-p.f.n., dotsent (SamDU)	N.A.Isakova	-f.f.n., dotsent (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun- **5584**

M U N D A R I J A
C O N T E N T S

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
1	Samarqandning Temuriylar sulolasi davridagi evolyutsiyasi, uning sivilizatsiyalarga o‘zaro ta’siri va uyg‘unlashuvi **Keremu N.**	The evolution of samarkand during the timurid dynasty and the interaction and fusion of its civilizations **Keremu N.**	**5-11**
2	Nazar Eshonqulning “Bepoyon osmon” hikoyasida muallif uslubiga lingvopoetik jihatdan yondashuv **Safarova D.B.**	A Linguopoetic Approach to the Authorial Style in Nazar Eshonqul’s Short Story “Bepoyon osmon” (The Boundless Sky”) **Safarova D.B.**	**12-15**
3	Ingliz va o‘zbek tillarida neologizmlarning tasnifi va ularning til tizimidagi o‘rni **Pardayeva N.B.**	Classification of neologisms in english and uzbek languages and their role in the language system **Pardaeva N.B.**	**16-20**
4	O‘rta asrlarda sharq va g‘arbiy yevropa mamlakatlaridagi davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzilmalarining qiyosiy tahlili **Abdullayev A.G.**	A comparative analysis of public administration and social structures in the countries of Eastern and Western Europe in the Middle Ages **Abdullaev A.G.**	**21-27**
5	Davlat ekologik ekspertizasi tizimining shakllanish tarixi va uning rivojlanish bosqichlari **O‘tayev O‘. Ch.**	History of the formation of the state ecological expertise system and its development stages **Utaev U. Ch.**	**28-30**
6	Samkomstarisning Samarqanddagi arxeologik tadqiqotlari va muzey fondlari shakllanishiga qo‘shgan hissasi **Yunusov M.**	The contribution of samkomstaris to archaeological research in Samarkand and to the formation of museum collections **Yunusov M.**	**31-36**
7	7-9-sinf o‘quvchilarining stem kompetensiyalarini baholash: spetsifikatsiya, mezonlar va kpi indikatorlari **Aliyeva X.Sh.**	Assessment of Stem competencies of 7-9 grade students: specification, criteria and kpi indicators **Alieva Kh.Sh.**	**37-42**
8	Raqamli tibbiy ta’limda talabalarda profilaktik immun madaniyatni rivojlantirish texnologiyalari **Mirzakarimova D.B.**	Technologies for the development of preventive immune culture in digital medical education students **Mirzakarimova D.B.**	**43-49**
9	10-12 yoshli kurashchilarda egiluvchanlik sifatining kurash texnikasini o‘zlashtirish samaradorligiga ta’siri **Toshmurodov O.**	The effect of flexibility on the efficiency of kurash technique acquisition in 10–12-year-old kurash athletes **Toshmurodov O.**	**50-57**
10	Влияние государственной политики развития спорта (в контексте «нового Узбекистана») на мотивацию учащихся спортивных школ **Мадаминов Б.Ш.**	The influence of state policy on sports development (in the context of "New Uzbekistan") on the motivation of students in sports schools **Madaminov B.Sh.**	**58-62**
11	Трансформация и калькирование иронических фразеологических единиц в русском и узбекском языках **Тошбекова Д.И.**	Transformation and Calquing of Ironic Phraseological Units in Russian and Uzbek **Toshbekova D.I.**	**63-68**
12	Объективная и субъективная модальность в русском и узбекском языках **Усманова С.Ю.**	Objective and subjective modality in Russian and Uzbek languages **Usmanova S.Yu.**	**69-76**
13	Образ женщин в произведениях Ч. Айтматова **Хаитова Ф.С.**	The Image of Women in the Works of Ch. Aitmatov **Khaitova F.S.**	**77-81**
14	Voleybol murabbiylarini tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish afzalligi **Boltayev Z.B.**	The advantage of using modern pedagogical technologies in the process of training volleyball coaches **Boltaev Z.B.**	**82-87**

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
15	Bo‘lajak shifokorlarda klinik-diagnostik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik modeli va raqamli ta’lim **Zokirov M.M.**	Pedagogical model for developing clinical-diagnostic competence in future physicians and digital educational technologies **Zokirov M.M.**	**88-93**
16	Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (tika)ning tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari hamda tashkiliy-siyosiy asoslari **Isadjanov B.I.**	The Establishment and Development of the Turkish Cooperation and Coordination Agency (TIKA), as well as its Organizational and Political Foundations **Isadjanov B.I.**	**94-98**
17	Ingliz gazeta sarlavhalarining tarjima xususiyatlari: lingvostilistik tahlil **Husanova Sh.Z., Isakova N.A.**	Translation features of English newspaper headlines: linguistic-stylistic analysis **Husanova Sh.Z., Isakova N.A.**	**99-103**
18	Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda 4k modeli orqali fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish **Gadayev O.Y., Norkulova J.S.**	Developing thinking and creativity through the 4k model in teaching mother tongue in primary grades **Gadayev O.Y., Norkulova J.S.**	**104-108**
19	Raqamli demokratiya sharoitida legitimlik va fuqarolik faolligining konfiguratsiyasi **Muminjonova U.X.**	Configuration of legitimacy and citizenship in the digital democracy **Muminjonova U.X.**	**109-113**
20	Simulyatsion va raqamli ta’lim muhitida jarrohlik fanini o‘qitishda amaliy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasi **Abduvoxidov A.A.**	Technology for developing practical professional competencies in teaching surgery within a simulation-based and digital learning environment **Abduvoxidov A.A.**	**114-119**
21	Shoshilinch tibbiy yordamda travmatologik holatlarni sun’iy intellekt asosida erta triaj qilish va klinik qaror qabul qilish samaradorligini oshirish metodikasi **Xolmatov A.A.**	Methodology for improving the efficiency of early triage and clinical decision-making in traumatological conditions in emergency medical care based on artificial intelligence **Xolmatov A.A.**	**120-125**
22	Bo‘lajak shifokorlarda klinik qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik raqamli texnologiyalari **Samatov Z.Z.**	Pedagogical digital technologies for developing clinical decision-making competence in future physicians **Samatov Z.Z.**	**126-130**
23	Yuqumli kasalliklar fanini o‘qitishda klinik-profilaktik fikrlash va epidemiologik xavflarni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi **Turdiyev M.N.**	Technology for developing clinical-preventive thinking and epidemiological risk management competencies in teaching infectious diseases **Turdiev M.N.**	**131-136**
24	Bo‘lajak shifokorlarga raqamli ta’lim muhitida anatomiya fanini o‘qitishninig zamonaviy texnologiyalari **Nishonova D.T.**	Modern technologies of teaching anatomy to future physicians in a digital educational environment **Nishonova D.T.**	**137-142**
25	Stomatologiya ta’limida valeologik madaniyatni rivojlantirishning integrativ va raqamli pedagogik texnologiyalari **Kamoliddinova I.Sh.**	Ntegrative and digital pedagogical technologies for developing valeological culture in dental education **Kamoliddinova I.Sh.**	**143-148**
26	Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarda mediasavodxonlik ko‘nikmalarini interfaol ta’lim texnologiyalari asosida takomillashtirish **Temirova Z.A.**	Improving students’ media literacy skills in a digital learning environment based on interactive educational technologies **Temirova Z.A.**	**149-154**
27	Tibbiy ta’lim muassasalari talabalarida klinik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi **Kamalova D.A.**	Technology for developing clinical thinking competence among students of medical educational institutions **Kamalova D.A.**	**155-159**
28	Charlz Dikkensning ijodida idio-stilning rivojlanishi: lingvostilistika tahlili **Rahmatilloyeva R.S.**	The development of idio-style in charles dickens’s creative work: linguastylistic analysis **Rahmatilloeva R.S.**	**160-167**

UDK: 378.22 https://doi.org/10.59251/2181-3973.2025.v1.138.1.3918

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILINI O‘QITISHDA 4K MODELI ORQALI FIKRLASH VA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

O.Y.Gadayev, J.S.Norkulova
Samarqand davlat pedagogika instituti, Samarqand, O‘zbekiston.

O.Y.Gadayev Samarqand davlat pedagogika instituti, Samarqand, O‘zbekiston.

Kelib tushgan: 18.03.2026
Ko‘rib chiqildi: 30.03.2026
Qabul qilindi: 16.04.2026
Nashr qilindi: 30.05.2026

Nashriyotchi: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarini 4K modeli asosida tashkil etish masalasi yoritiladi. Ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. 4K modelining asosiy komponentlari – tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik va hamkorlik ko‘nikmalarini ona tili darslari mazmuniga integratsiya qilish yo‘llari ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, interfaol metodlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy faolligini oshirish imkoniyatlari asoslanadi.

Kalit so‘zlar: 4 “K” modeli (kritik fikrlash, kreativ fikrlash, kommunikativlik va kollaboratsiya), 4 “K” ko‘nikmalari (tanqidiy, ijodkorlik, muloqotchanlik, hamkorlikda ishlash), innovatsion uslublar, ta’limni tashkil qilish shakllari, kompetensiyaviy yondashuv, boshlang‘ich ta’lim metodikasi.

Развитие мышления и творчества через модель 4k при обучении родному языку в начальной школе

Аннотация. В статье рассматривается вопрос организации уроков родного языка в начальных классах на основе модели 4К. Анализируется педагогическое значение развития компетенций критического мышления и креативности в образовательном процессе. Показаны пути интеграции основных компонентов модели 4К – критического мышления, креативности, коммуникативности и сотрудничества - в содержание уроков родного языка. Также обосновываются возможности повышения самостоятельного мышления и творческой активности учащихся посредством использования интерактивных методов обучения.

Ключевые слова: модель 4К (критическое мышление, креативное мышление, коммуникативность и коллаборация), навыки 4К (критичность, креативность, коммуникабельность, умение работать в сотрудничестве), инновационные методы, формы организации обучения, компетентностный подход, методика начального образования.

Developing thinking and creativity through the 4k model in teaching mother tongue in primary grades

Abstract. The article discusses the organization of mother tongue lessons in primary school based on the 4C model. The pedagogical significance of developing critical thinking and creativity competencies in the educational process is analyzed. The ways of integrating the main components of the 4C model - critical thinking, creativity, communication, and collaboration - into the content of mother tongue lessons are presented. In addition, the possibilities of increasing students’ independent thinking and creative activity through the use of interactive teaching methods are substantiated.

Keywords: 4C model (critical thinking, creative thinking

communication and collaboration), 4C skills (criticality, creativity communicativeness, teamwork), innovative methods, forms c organizing education, competency-based approach, primary educatio methodology.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarorida xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o‘qish, PIRLS baholash dasturi yo‘nalishidagi savollar milliy bazasini yaratish va o‘quv dasturlariga integratsiya qilish eng ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasida xalq ta’limi tizimida olib borilayotgan amaliy ishlar, ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to‘g‘risida hukumat qarorining qabul qilinishi ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi ta’lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi[1].

Har qanday ta’lim jarayoni samarali bo‘lishi uchun u ta’lim oladigan shaxsning qiziqish va ehtiyojlariga mos bo‘lishi lozim. Bu barcha yoshdagi ta’lim oluvchilarga xos bo‘lib, ayniqsa, kichik maktab yoshdagilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ yondashuvlar asosida turli hayotiy vaziyatlarga tayyorlash murakkab vazifa sanaladi. Ta’lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan yangi avlod shakllantiriladi. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo‘yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan 4 “K” modeli asosida tayyorlandi. 4 “K” modelidan foydalanish ko‘plab sinovlardan o‘tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” PF-5712 sonli Farmoniga binoan ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, shu maqsadda “Uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish” muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida aytilgan[2].

Hozirgi zamon ta’limi oldida turgan asosiy maqsad, o‘quvchi shaxsini bilimlar bilan qurollantirish emas, balki ularni fikr yuritish faoliyatiga o‘rgatishdan iborat. Shuningdek, zamonaviy darslarni tashkil qilish negizida 4 “K” modelini qo‘llash asosida o‘quvchilarda kritik (tanqidiy) fikrlash, kreativ fikrlash, kommunikativ va kooperativ ko‘nikmalarni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta’limni isloh qilish tizimiga yangi innovatsion uslublarni joriy etish bilan bog‘liq. Ana shunday yondashuvlardan biri 4 “K” modelidir. 4 “K” modeli ta’lim berishga zamonaviy yondashuv bo‘lib, ushbu yangi tajriba bilan o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o‘z fikrini erkin bayon eta olishiga ko‘proq ahamiyat beriladi. Bu model boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi uchun muhim vositadir[3]. 4 “K” modeli orqali bolalar nafaqat grammatika va so‘z boyligini egallashadi, balki muammolarni tahlil qilish, yangi g‘oyalar yaratish, fikrlarni ravon ifodalash va guruhda samarali ishlash qobiliyatlarini ham shakllantiradilar. Bu metodologiya o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, quyidagi to‘rt asosiy kompetensiyani o‘z ichiga oladi:

Kollaboratsiya - o‘quvchilarning birgalikda maqsadga erishish uchun faol ishtirok etishi, fikr almashishi, vazifalarni bo‘lishishi va umumiy natija uchun hamkorlik qilish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda kollaboratsiya o‘quvchilarning ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘z fikrini bildirish va boshqalarning fikrini tinglash orqali o‘zaro muloqotni mustahkamlashga xizmat qiladi. Pedagogik nuqtayi nazardan, kollaboratsiya shunday shakllantiriladiki, o‘quvchi dars jarayonida faol subyektga aylanadi, o‘qituvchi esa o‘quv jarayonini yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi rolida bo‘ladi. Shu yo‘l bilan o‘quvchilar nafaqat ona tili bilimlarini o‘zlashtiradi, balki guruhda ishlash, birgalikda muammo yechish va ijodiy yondashuvni

qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, guruh loyihalari, matnni birgalikda tahlil qilish, bahs-munozaralar va rolli o‘yinlar kollaboratsiya qobiliyatini rivojlantirishning samarali usullari hisoblanadi.

Kommunikativlik – o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadi. Bu o‘quvchilarning faol ishtirokini rag‘batlantiradi, ularni dars jarayonida suhbatlashishga, fikr almashishga va o‘z fikrini dalillar bilan himoya qilishga o‘rgatadi. Shuningdek, o‘quvchilar muloqot jarayonida tanqidiy fikrlash va kreativ yondashuvni ham bir vaqtning o‘zida qo‘llash imkoniga ega bo‘ladi. Dars jarayonida muhokamalar o‘tkazish uchun ochiq savollardan foydalanish mumkin. Shunda o‘quvchilar boshqalardan ma’lumot, ko‘rsatma, rag‘batlantirish olishsa ham, o‘z fikrlarini ifoda etish va yetkazishni mashq qilishlari mumkin. Shu bilan birgalikda o‘quvchilarning muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun formativ baholashda topshiriqlarga berilgan individual yozma javoblarni qabul qilish ham o‘quvchining yangi imkoniyatlarini ochadi. O‘quvchilar samarali tinglashni mashq qilishlari va muloqotni rivojlan tirish uchun moslashuvchan bo‘lishlari talab etiladi, bu nafaqat maktab darslarida, balki oila muhitida ham muntazam sodir bo‘lishi ahamiyatli hisoblanadi[6].

Kreativ fikrlash – o‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda kreativ fikrlash o‘quvchilarga matn yaratish, hikoya tuzish, matnni davom ettirish, rolli o‘yinlar va loyihaviy faoliyat orqali rivojlantiriladi. Masalan, matnni davom ettirish yoki yangi hikoya yaratish topshiriqlari o‘quvchilarda yangicha yondashuvni rag‘batlantiradi va ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Pedagog olima Sh.O. Toshpo‘latovaning tadqiqotlariga ko‘ra, kreativ xarakterdagi mashg‘ulotlar o‘quvchilarning fantaziya olamini boyitish bilan bir qatorda, ularning mantiqiy fikrlash jarayonlarini ham o‘zaro mutanosiblikda rivojlantiradi[4].

Kritik (tanqidiy) fikrlash – o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o‘rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradi[7]. Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda tanqidiy fikrlash o‘quvchilarga matnni chuqur tushunish, voqealar orasidagi bog‘lanishni aniqlash va o‘z fikrini asoslash imkonini beradi. Tanqidiy fikrlash mashqlari o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi va ularning muammo yechish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi, interfaol pedagogik metodlar esa tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradi, o‘quvchilarni passiv bilim qabul qiluvchi emas, balki faol subyekt sifatida jalb qiladi.

Bu to‘rt kompetensiya bir-birini to‘ldirib, mukammal dars jarayonini tashkil etishga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ushbu 4 “K” kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni shunchaki nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmaydi. Bu o‘qituvchidan dars tuzilmasini tubdan o‘zgartirishni va har bir darsda o‘quvchini faol subyektga aylantirishni talab etadi. Bolaning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun darslarda fantaziya va mantiqiy tahlilni birlashtiruvchi muhit yaratilishi lozim. Ushbu muhitni yaratishda metodik imkoniyatlarning boyligi muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogikada 4 “K” modelining har bir komponentini alohida va tizimli rivojlantirishga xizmat qiluvchi maxsus metodlar va texnikalar mavjud bo‘lib, ular o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda tanlanadi. Quyida keltirilgan innovatsion metod va interfaol o‘yinlar o‘quvchilarda 4 “K” modeli tarkibidagi kritik (tanqidiy) fikrlash, kreativlik, kommunikativlik va kollaboratsiya kabi ko‘nikmalarni rivolantirishda hamda fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda, zukkolik, tirishqoqlik, chaqqonlik va aniq harakat qilish, bilimlarni puxta egallash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida 4 “K” modelini qo‘llash o‘quvchining til boyligini shunchaki oshiribgina qolmay, uning fikrlash doirasini tubdan o‘zgartiradi. Bu jarayon, avvalo, kritik (tanqidiy) fikrlashni shakllantiruvchi “**Mantiqiy zanjir”** metodi orqali boshlanadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga tartibsiz berilgan so‘zlardan mantiqiy gap tuzish vazifasini topshiradi. O‘quvchi so‘zlarni shunchaki ketma-ket qo‘ymay, “Nima uchun ega boshida kelishi kerak?”, “Kesimning o‘rni qayerda?” degan savollar ustida tahlil yuritadi. Bu metod orqali bola grammatik qoidalarni quruq yodlashdan voz kechib, til birliklarining o‘zaro bog‘liqligini mantiqiy tahlil qilishni o‘rganadi. Tahliliy poydevor shakllangach, o‘quvchida til imkoniyatlaridan foydalangan holda kreativlik (ijodkorlik) qobiliyatini yuzaga chiqarish imkoniyati tug‘iladi. Pedagog olima Sh.O.Toshpo‘latova o‘z

tadqiqotlarida ta’kidlaganidek, kreativ topshiriqlar o‘quvchining fantaziyasi va mantiqiy tafakkurini uyg‘unlikda rivojlantiruvchi asosiy omildir. Ona tili darslarida buni **“Skemper”** (SCAMPER) usuli yordamida amalga oshirish yuqori samara beradi. Masalan, o‘quvchilarga biror oddiy predmet (masalan, “qalam”) berilib, unga “aqlli”, “charchagan” kabi noodatiy sifatlarni tanlash yoki uning jonli obrazini yaratish topshiriladi. Bu jarayonda bolaning xayoloti mantiqiy til qoidalari bilan birlashadi va u tilning boy imkoniyatlarini ijodiy his qila boshlaydi. Fikrlash va ijod qilish jarayoni shakllangan o‘quvchida o‘z g‘oyalarini savodli bayon etish, ya’ni kommunikatsiya ko‘nikmasini rivojlantirish navbatdagi muhim bosqichdir. Bunda **“Aylanma suhbat”** (Think-Pair-Share) metodi darsning har bir daqiqasidan unumli foydalanishga yordam beradi. O‘quvchi berilgan mavzu bo‘yicha avval mustaqil ravishda gap tuzadi (o‘ylaydi), so‘ng partadoshi bilan fikr almashib, bir-birining imlo xatolarini tuzatadi (juftlashadi) va yakunda eng sara fikrni butun sinfga taqdim etadi (ulashadi). Bunday yondashuv bolada nafaqat nutq madaniyatini, balki o‘z fikrini dalillar bilan, qo‘rqmasdan yetkazib berish ko‘nikmasini shakllantiradi. Nihoyat, barcha individual va muloqot ko‘nikmalari kollaboratsiya (hamkorlik) muhitida jamoaviy natijaga aylanadi. 4K modelining ushbu yo‘nalishida **“Guruhli matn yaratish” (Jigsaw)** metodi ona tili darslarida o‘ziga xos ahamiyatga ega. Sinf kichik guruhlarga bo‘linib, har bir guruhga bitta umumiy matnning ma’lum bir qismi (boshi, o‘rtasi yoki yakuni) ustida ishlash topshiriladi. Har bir guruh o‘z qismidagi grammatik va uslubiy topshiriqlarni bajaradi, so‘ngra barcha qismlar birlashtirilib, yaxlit mantiqiy matn hosil qilinadi. Bu jarayon o‘quvchida jamoada ishlash mas’uliyatini uyg‘otish bilan birga, har bir so‘z va gap butun bir matnning mazmunini belgilashini amaliy tushunishga yordam beradi.

O‘qish savodxonligi – shaxs o‘quvchilarning bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish maqsadiga erishishi yo‘lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, matn ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir. O‘qish savodxonligining quyidagi ta’rifida uning har bir qismiga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, PIRLSdagi dalillar va boshqa amaliy tadqiqotlardan foydalangan holda ba’zi muhim o‘zgartirishlar kiritildi va puxta ishlab chiqildi. Bu nazariyadagi o‘zgarishlar va dunyoda bo‘layotgan o‘zgarishlarni inobatga olib amalga oshirildi. O‘qish savodxonligining oldingi ta’riflarga qaraganda farqini solishtirar ekanmiz, “O‘qish” atamasi o‘rnida “O‘qish savodxonligi” atamasi foydalanilganligini ko‘rish mumkin, chunki ushbu jumla mazkur dasturning tadqiqot doirasi, o‘rganish obyektlari haqida, hattoki ayni fan mutaxassisi bo‘lmaganlarga ham aniqroq tasavvurlarga ega bo‘lishga yordam beradi. O‘qish savodxonligi bir qator aqliy faoliyat va til kompetensiyalarini qamrab oladi. Jumladan, alohida olingan so‘zning ma’nosini tushunishdan tortib, matnning grammatik va lingvistik qurilishini anglash hamda matndan olingan ma’noni o‘zining olam haqidagi tasavvurlari bilan bog‘lashni o‘z ichiga oladi. U metakognitiv kompetensiyalarni, ya’ni matn bilan ishlashda kerak bo‘ladigan turli strategiyalarni bilish va ularni to‘g‘ri qo‘llay olishni ham o‘z ichiga oladi. Metakognitiv kompetensiyalar o‘quvchi fikrlaganda, kuzatganda va o‘zining o‘qish mashg‘ulotini ma’lum maqsadga yo‘naltirganda faollashadi.

Garchi “savodxonlik” atamasi biror shaxsning o‘rganish, foydalanish, yozilgan va nashr etilgan ma’lumotni yetkazish kabi salohiyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, bu atama, odatda, shaxsning ma’lum bir fan yoki sohaga oid bilimini anglatadi. Mazkur ta’rif “O‘qish savodxonligi” atamasini yoritib berish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ko‘plab vaziyatlarda va turli maqsadlar uchun o‘qishning faol, maqsadli va qulay shaklini ifodalash fikriga mos keladi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarga yozish, chizish, to‘rt amal yordamida hisoblash va ularni amalga oshirishning qonun-qoidalari hamda mustaqil bilim olishni o‘rgatadi. Taniqli olim, professor B.Ziyomuxammedov ta’kidlaganidek, pedagogikaning asosiy qonunlaridan biri berilayotgan bilimga qiziqtirish yo‘li bilan o‘quvchilar diqqatini darsga jalb etish hisoblanadi[9].

O‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirishni PIRLS baholash dasturi talablari asosida tashkil etish muhim jarayondir. O‘qish savodxonligini oshirish jarayonini faollashtirish, o‘quvchilarda mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan intilish, mavzuga oid ma’lumotlarni mustaqil tarzda o‘qib o‘rganish, savodxonlik darajasi, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlash me’zoni bo‘lib, u o‘quvchilarda quyidagi xususiyatlarning shakllanishiga asos bo‘ladi:[10]

o‘quvchilarda o‘qish va yozuv savodxonlik darajasini namoyon qilish;
bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;
ularning o‘qitiladigan fanlarga oid bilimlarini rejalashtirish;
sinfda va sinfdan tashqarida olingan bilimlarni tartibga solish,
qilish uchun ongli ravishda foydalana bilish;
ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida 4K modelini tizimli ravishda tatbiq etish o‘quvchi shaxsini shakllantirishda shunchaki metodik yangilik emas, balki zamonaviy ta’limning hayotiy zaruriyatidir. Tadqiqotlar va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ona tili fanini o‘qitishda faqatgina grammatik qoidalarni mexanik yodlatish bilan cheklanib qolish o‘quvchining mantiqiy va ijodiy salohiyati cheklanishiga olib keladi. Aksincha, 4K modelining har bir komponenti – tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va kollaboratsiya – o‘quvchini passiv axborot qabul qiluvchidan faol tadqiqotchi, tahlilchi va ijodkor darajasiga ko‘taradi. Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, hozirgi kunda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida darsliklar yangidan “4K” modeli asosida tayyorlanmoqda[5]. Ona tili darslari doirasida qo‘llanilgan “Mantiqiy zanjir”, “Skemper”, “Aylanma suhbat” va “Guruhli matn yaratish” kabi metodlar o‘quvchida til birliklarining mohiyatini chuqur anglab yetishga xizmat qiladi. Ushbu metodik yondashuvlar bolaning so‘z boyligini oshirish bilan bir qatorda, uning murakkab ijtimoiy muhitda o‘z fikrini dadil va savodli bayon etishiga mustahkam zamin yaratadi. Pedagogik nuqtayi nazardan qaraganda, kreativ mashg‘ulotlar o‘quvchining fantaziyasi (xayoloti) va mantiqiy tafakkurini parallel ravishda rivojlantirishi isbotlangan. Bu esa bolaga tilning murakkab grammatik qurilishini oson tushunish bilan birga, undan nutqiy vaziyatlarda nostandart va ijodiy foydalanish imkonini beradi. Mazkur modelning amaliyotga tatbiq etilishi o‘quvchining kognitiv (bilish) faolligini oshirib, unda o‘z-o‘zini tahlil qilish va o‘zgalar fikriga nisbatan tolerant munosabatda bo‘lish madaniyatini shakllantiradi. Hamkorlikka asoslangan topshiriqlar esa guruhda ishlash mas’uliyatini uyg‘otib, umumiy natija uchun qayg‘urish hissini tarbiyalaydi. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nafaqat fan bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini, balki ularning umumiy intellektual salohiyatini ham yangi bosqichga olib chiqadi. Shunday qilib, ona tili darslarida 4K modelini qo‘llash orqali o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan ichki motivatsiyasi tubdan oshadi. Ushbu model orqali shakllangan XXI asr ko‘nikmalari bolaning kelajakda axborotlar oqimini tahlil qila oladigan, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri yechim topadigan va muloqotga ochiq zamonaviy shaxs bo‘lib yetishishini kafolatlaydi. Binobarin, dars jarayonida har bir pedagogdan ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik usullar to‘plamini muntazam takomillashtirib borish va har bir dars bosqichida ulardan maqsadli foydalanish talab etiladi. Bu esa milliy ta’lim standartlarida belgilangan kompetensiyaviy yondashuvning amaldagi yorqin ifodasidir.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’lim tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini to‘g‘risidagi PF-5712-sonli Farmoni. https//www.lex.uz.
3. Uzoqov H. O., Quliyeva Sh. H., Muxidova O. N., Xolmatova K. T. Texnologik madaniyat kompetentlik asoslari/ o‘quv qo‘llanma [Matn] “Buxoro determinanti” mchjning Kamolot nashriyoti. 2022. 310-b.
4. Toshpo‘latova Sh.O. Boshlang‘ich sinf darslarida kreativ fikrlashni shakllantirish metodikasi. // “Pedagogika” ilmiy-nazariy jurnali. – Toshkent, 2023.
5. Jabborov U. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati https://aniq.uz/uz/yangiliklar/barchasi-maktab-partasidan-boshlanadi-boshlangich-sinfda-4k-modeli-zamonaviy-talimga-innovasion-yondashuv.
6. Egamberdiyev Sh., Maxmudov A., Tojiboyev R. “4 K ko‘nikmalarini baholash rubrikalari” (uslubiy qo‘llanma) – Toshkent-2024.
7. XXI asr o‘quvchisi uchun zarur ko‘nikmalarini o‘rgatuvchi model – 4K haqida.// Kun.uz axborot nashri, 17.08.2023. Elektron manba: https://kun.uz/news/2023/08/17/xxi-asr-oquvchisi-uchun-zarur-konikmalarini-orgatuvchi-model-4k-haqida.
8. Ona tili va o‘qish savodxonligi: 1-4-sinflar uchun darsliklar va o‘qituvchi kitobi. – Toshkent: “Novda edutainment”, 2022-2023.
9. Ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) PIRLS 2021 baholash qamrov doirasi, Ina V.S. Mullis va Michael O. Martin, muharrirlar 2019.
10. Smith, E. L., Johnson, S. L. (2018). Teaching children to read: The teacher makes the difference. Routledge; Brown, P., Green, T. D., & Sawyer, W. W. (Eds.).

SAMARQAND UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC REPORTS

Texnik muharrir **Sh.Xoliqulov**

Muharrirlar:

I.Sulaymonov - fil.f.d., dotsent
E.Arziqulov - f.-m.f.d., dotsent
O.Yusupova - fil.f.n., dotsent

Mas'ul muharrir:

A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.n.

Muassis: Samarqand davlat universiteti Manzil: 140104,
Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 240-38-47, Faks: (0 366) 239-13-87 e-mail:
axborotnoma.uz
SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi. Bosishga 30.05.2026-yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00
Buyurtma raqami 845 Adadi 30 nusxa.

ISSN 2181-1296